

SMTI va Saudiya Arabistonining "Gulf Research Center" tadqiqot markazi memorandum imzoladi



2025-yil 28-aprel kuni Toshkentda “Strategik sheriklikni mustahkamlash: tarixiy aloqalardan keng qamrovli hamkorlik sari” mavzusida Markaziy Osiyo mamlakatlari tahlil markazlarining birinchi forumi va Koʻrfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi (KADHK) oʻz ishini boshladi.

Tadbirda Saudiya Arabistoni, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari, Qozogʻiston, Quvayt, Qirgʻiziston, Oʻmon Sultonligi, Bahrayn Podshohligi, Tojikiston, Turkmaniston kabi mamlakatlarning yetakchi tahlil markazlari rahbarlari va ekspertlari ishtirok etmoqda.

Tadbirda Oʻzbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining birinchi oʻrinbosari Bahrom Aloyev, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Eldor Aripov, Saudiya Arabistonining Gulf Research Center (GRC) tadqiqot markazi direktori Abdulaziz Sager, KADHK departamenti boshligʻi Vejdan Fahad ishtirokchilarga murojaat qildi.

Forum doirasida SMTI va GRC oʻrtasida oʻzaro anglashuv memorandumini imzolandi. Hujjatda hamkorlikni rivojlantirish va ikki davlat tahlil markazlari oʻrtasida hamkorlikda ilmiy tadqiqotlar olib borish, dolzarb masalalarga bagʻishlangan forumlar, seminarlar va davra suhbatlari tashkil etish orqali muntazam ishchi aloqalarni yoʻlga qoʻyish koʻzda tutilgan.

Hamkorlikning ustuvor yoʻnalishlari qatorida tashqi siyosat va xavfsizlik, mintaqaviy barqaror rivojlanish, tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, shuningdek, oʻzaro manfaatli sheriklikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi boshqa sohalar kiradi.



Memorandum imzolanishini sharhlar ekan, GRC rahbari doktor Abdulaziz Sager uning imzolanishi tahliliy markazlar o'rtasidagi muloqotni institutsionallashtirish yo'lidagi muhim qadam bo'lganini ta'kidladi. "Ushbu kelishuv umumiy muammolarni chuqur tahlil qilish va hududlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash uchun yangi yo'nalishlarni ochadi." Bizning hamkorlikdagi ishimiz salmoqli natijalar berishiga ishonaman," dedi ekspert.

O'z navbatida, SMTI direktori Eldor Aripov GRC bilan hamkorlik ekspert resurslarini birlashtirish, O'zbekiston va Ko'rfaz davlatlari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan amaliy yechimlarni ishlab chiqish uchun sharoit yaratishini ta'kidladi.

GRC 2000-yilda Saudiya Arabistonining Jidda shahrida tashkil etilgan mustaqil tahlil markazi bo'lib, Ar-Riyod, Jeneva, Kembrij va Bryusselda bo'limlari mavjud. Ko'rfaz mintaqasining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini, shuningdek, xalqaro munosabatlar va atrof-muhitni o'rganishga ixtisoslashgan. Markaz "Araa" jurnalini nashr etadi, konferensiyalar (shu jumladan, yillik Kembrij uchrashuvi) va maslahat loyihalarini amalga oshiradi. Doktor Abdulaziz Sager boshchiligidagi Markaz Top-150 ta eng yaxshi global tahlil markazlari qatoriga kiradi, BMTda kuzatuvchi maqomiga ega bo'lib 95 dan ortiq tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi.